**Mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘quv bloki** | **III. Kimyo fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar** | | | | |
| O‘quv modul | 3.1. Kimyo fanining DTS va yangi avlod darsliklarning tahlili | | | | |
| **Mavzu** | Kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish | | | | |
| **Davomiyligi** | 80 daqiqa | | | | |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | • O‘qituvchilarning o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati haqida bilimlarini boyitish.<br>• O‘qituvchilarning kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish, tanqidiy va kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida darslarni tashkil etishning interfaol metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish. | | | | |
| **Mashg‘ulot bosqichlari** | **Faoliyat tavsifi** | **Vaqt, daqiqa** | **Metodlar** | **Zarur jihozlar** | **Natija** |
| **1. Tashkiliy qism** | - Salomlashish;<br>- mavzu va reja bilan tanish-tirish. | 5 | Suhbat, tushuntirish | 1-2-slaydlar | O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi. |
| **2. Motivatsiya** | - Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol<br>- “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama | 5 | Muammoli vaziyat yaratish, muhokama | 3-slayd<br>1-ilova | O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi. |
| **3. Nazariy qism** | - O‘qituvchilarning o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati haqida | 15 | Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish | 4-18- slaydlar | O‘qituvchilar o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini nazariy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tushuntirish;<br>- kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish metodlarini izohlash; | | | | jihatdan o‘rganadi. |
| **4. Amaliy mashg‘ulot** | - Guruhlarda ishlash: tanqidiy va kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida darslarni tashkil etishning interfaol metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid topshiriqlar orqali muhokama qilish. | 35 | Guruhlarda ishlash | 1- tarqatma;<br>19-slayd | O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. |
| **5. Tahlil va muhokama** | - Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;<br>- Qiyinchiliklarni muho-kama qilish;<br>- Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish | 10 | Suhbat, muhokama, tahlil | 19-slayd;<br>3-ilova | O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi. |
| **6. Refleksiya** | - “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish | 5 | Refleksiya usullari | 20-slayd | O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi. |
| **7. Yakunlash va baholash** | - Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish<br>- Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish | 5 | Suhbat | 21-slayd | O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi. |

**Ilovalar**

**1-ilova.**Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

- O‘qitish muhitiga qoyiladigan zamonaviy talablar deganda nimani tushunasiz?
- O‘quvchilarda motivatsiyani oshirish uchun sinf muhitini qanday yaratish kerak?
- Stressni kamaytiradigan va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlaydigan muhit qanday yaratiladi?
- Hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qanday shart-sharoitlar kerak?

**2- ilova 1-tarqatma material**

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

**1-guruh uchun topshiriq.**O‘quvchilarni kreativ fikrlashga undash uchun qanday interfaol metodlardan foydalanish mumkin? “Idrok xaritasi” yoki “Mind Mapping” usuli qanday qo‘llaniladi va uning afzalliklari nimalardan iborat?

**2-guruh uchun topshiriq.** Tanqidiy va kreativ fikrlashga qaratilgan topshiriqlar qanday baholanadi? Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun guruhli muhokama va loyihaviy ishlashni qanday tashkil qilish mumkin?

**3-guruh uchun topshiriq.** Muammoli ta’lim usulini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qanday faollashtirish mumkin? O‘quvchilarda mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qanday topshiriqlar berish kerak?

**4-guruh uchun topshiriq.** Interaktiv texnologiyalar yordamida bilish faoliyatini qanday faollashtirish mumkin? Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanishning o‘quv jarayoniga ta’siri qanday?

**3-ilova.** Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

| Kamchiliklar | Afzalliklari |
| --- | --- |
| | |
| | |